

"Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi InnoWeek 2020 ishtirokchisi

2020 6 October

3-8-noyabr kunlari "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish Vazirligi tomonidan har yili o'tkaziladigan InnoWeek.Uz 2020 onlayn-ko'rgazmasida ishtirok etadi.

InnoWeek.Uz - Innovatsion g'oyalar haftaligida aviakompaniya aviatsiya tashuvlari bo'yicha keng ko'lamlı imkoniyatlarni taqdim etadi, shuningdek, yangi xizmatlar va samolyot bortida taqdim etiladigan servis bilan tanishtiradi.